



THE ROLE OF USING NEW MODERN INNOVATIVE METHODS IN EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Khudoykulova Hilola Mamayunusovna
TerDPI 2nd Cycle Graduate Student
hilolaxudoyqulova@gmail.com
+998996789711

Annotation

The article details the role of innovative methods in teaching reading literacy in the native language and opinions about their use.

Keywords: Innovation, native language and reading literacy, method, text, critical, logical, imaginative thinking, creativity.

Annotatsiya:

Maqolada ona tili o`qish savodxonligi darslarini o`ganishda innovatsion metodlarning tutgan o`rni va ulardan foydalanish yuzasidan fikrlar atroflicha yoritilgan.

Kalit so`zlar: Innovatsiya, ona tili va o`qish savodxonligi, metod, matn, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy fikrlash, kreativlik.

Аннотация: В статье подробно освещается роль инновационных методов в обучении грамоте чтения на родном языке и мнения об их использовании.

Ключевые слова: Новаторство, родной язык и грамотность чтения, метод, текст, критическое, логическое, образное мышление, креативность.

Ta'lim-tarbiya tizimini yangilashda boshlang'ich sinflarga ona tili va o`qish savodligi darslarini o'rgatishga doir innovatsion harakatlarni amalga oshirish, isloh qilish, shakllantirish ta'lim sohasining rivojlanish darajasini belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biridir.

Yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda innovatsion metodlarni pedagogik faoliyatda qollash, o`quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta'lim jarayonida davr talabiga mos o`qitishning yangi usul va metodlarining ishlab chiqilishi va qo`llanilishi o`quv jarayonining samarasini, sifatini ta'minlashda ustuvor jarayondir. Zamonaviy o`qituvchi pedagogik faoliyatda ta'lim va tarbiyani rivojlantiruvchi zamonaviy vositalardan unumli foydalanishi, o`z ustida doimiy ishlashi va eng yangi innovatsion metodlarni amaliyotda qollashi ta'lim sifati, unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o`stiradi, qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o`zlashtirish, o`zlashtirilgan bilimlar bazasidan hayotiy masalalarda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini mustaxkamlaydi. Boshlang'ich sinfda o`quvchilar tafakkurini shakllantirishda



o`qituvchining innovatsion metodlarni dars jarayoniga mohirona qo`llay olishi, yangidan-yangi usul va metodlar ustida tadqiqot olib borishi, ilg`or ustozlar tajribasidan o`z darslarida foydalanishi juda muhimdir.

“Ona tili va o`qish savodxonligi fani og`zaki va izchil nutqni o`stirish, so`z boyligini o`shirish, to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatish bilan birga ularga kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi”¹

Ona tili va o`qish savodxonligi leksik grammatik meyorlarni o`rgatuvchi, o`quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to`g`ri o`qish, orfoepik va orfografik miyorlarga amal qilish salohiyatini oshirishga yordam beradigan fan hisoblanib, bolalarning ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash uchun o`qib tushinish ko`nikmalarini rivojlantirishga alohida e`tibor beriladi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi darslarini oqitishda oldiga qo`yilgan tarbiyaviy vazifaning muvoffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilan bog`liq bo`lib qolmay, ta`lim oluvchini qurshab turgan borliq, atrof-olam, ekologik jarayonlar, foydali mehnat bilan o`zaro bog`liq bo`lishi, fanlararo integratsiyani ta`lim jarayonida amalga oshirish ahamiyatlidir. “Boshlang`ich sinflarda bir o`qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir deb hisoblasak ham bo`ladi, ammo muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o`girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o`qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo`yilishi integratsiyaning turli ta`lim pog`onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko`rsatadi. Boshlang`ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko`rish maqsadga muvofiq. Ta`limning keyingi pog`onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi”².

Boshlang`ich sinflarda bolalar tomonidan ertak, hikoya, masal janrlari katta qiziqishlar bilan qabul qilinadi. “Xalq og`zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o`qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta`sirchanligi, o`tkir syujetlilik va xalq tiliga yaqinligidir”³ Boshlang`ich sinf Ona tili va o`qish savodxonligi darslarida “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” bo`limida berilgan “Bo`g`irsoq”, “Uch og`a-ini botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Echki va bolalari” ertaklar ichidan yaxshi va yomon qahramonlarni ajratib olish, matndan qahramonlarning xarakter-xususiyatlari aks etgan o`rinlarni aniqlash, nutqni boyitishda ertak g`oyasiga mos maqol va hikmatli sozlarning ahamiyatini tushuntirish, ertak tarkibidan hayvon va parrandalarning nomlarini bildirgan otlarni ajratish, ertak qahramonlaridan biriga xat yozish kabi metodlardan foydalanish mumkin.

Yangi bilimlarni o`lashtirishda yordam beradigan qiziqarli innovatsion metodlarda ertak matnidan foydalangan holda darsni tashkil etishda 1-sinf o`quvchilariga “Serkaboboning hiylasi” ertagini otishda “Aktyor” metodidan foydalanish bolalarni kreativ fikrlashga chorlaydi, aqlli, zukko bo`lishga undaydi

¹ Milliy o`quv dasturi 2020

² R.Mavlonova, N.Rahmonqulova “Boshlang`ich talimda pedagogika, innovatsiya, integratsiya” Toshkent-2013

³ K.Qosimova “Ona tili o`qitish metodikasi” Toshkent “Nosir” nashriyoti 2009



va ta'lim jarayonida yuqori samara beradi. Metodni qo'llashdan oldin tayyorlov bosqichiga alohida e'tibor bilan yondoshish lozim. Bunda bolalarga ertakning audiomatni eshittiriladi, ertak yuzasidan savol-javob otkaziladi (Savollarni ertak matnidagi voqealar asosida bolalarning o'zlari tuzib, bir birlariga beradilar) hamda matnda ishtirok etgan qahramonlarni aniqlab, ijobiy va salbiy qahramonlar haqida o'z fikrlarini og'zaki bayon etadilar, shu orqali ertak mazmuni bilan to'la tanishib, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shundan so'ng bolalarga ertak qahramonlari roli taqsimlab beriladi va Serkabobo, arslon, bo'ri, echkilar niqoblarini taqib, ertakda ro'y bergan voqialarni sahna ko'rinishi orqali namoyish qiladilar. "Aktyor" metodi yordamida o'quvchilarda, ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi va san'atga bo'lgan qiziqishlari orttiriladi. O'rganilgan ertak qahramonlarining xarakteri va axloqiy sifatlarini tahlil qilishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'lish bilan birga ahillik, inoqlik, birdamlik, izlanuvchanlik, topqirlik, mas'uliyatlilik, kurashuvchanlik, kreativ fikrlash, shoshilinch vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi sifatlar rivojlantiriladi.

Zero, hozirgi zamonaviy milliy o'quv dasturida yosh avlodni muayyan til qonuniyatlarini yodlatish emas balki kundalik hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarga ega bo'lgan roqobatbardosh, vatanparvar, kreativ fikrlaydigan har tomonlama yetuk barkamol shaxsni tarbiyalash hamda bilimni boyitib borish maqsadi ko'zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. "Milliy o'quv dasturi". 2020. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya". Toshkent-2013.
3. "Ona tili va o'qish savodxonligi" 1-sinf uchun darslik. Yangi nashr Toshkent-2021
4. K. Qosimova "Ona tili o'qitish metodikasi". Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009-yil.
5. N. Rasulova o'quv qo'llanma Toshkent "Nurafshon ziyo yo'g'dusi" 2021-yil.